

AXBOROT ISTE'MOLI MADANIYATI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YECHIMLAR

Raimjonova Xurshidabonu G'ofurjon qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika psixologiya yo'nalishi
1- bosqich magistranti*

Xalimova Mashrabxon Vohidovna

Andijon davlat pedagogika instituti psixologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Axborot iste'moli madaniyati shaxsning ilmiy bilish, mustaqil ta'lim olish, hordiq chiqarish va boshqa ko'rinishdagi faoliyati jarayonida paydo bo'ladi. Umuman olganda, axborot iste'moli madaniyati ma'lumotdan samarali foydalanishga doir bilim va ko'nikmalar yig'indisi bo'lib, zaruriy axborotni kompyuter va internet tarmog'i orqali qidirishning turli usullarini o'zida mujassam etadi. Shuning uchun global axborot tizimidagi xabarlarini filtrsiz qabul qilish xavfi muttasil kuchaya boradi va bu holat salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida oquvchi-yoshlarda axorot istemoli madaniyatini rivojlantirishning ayrim masalalari yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: axborot, axborot iste'moli madaniyati, internet tarmog'i, globallashuv, ta'lim tizimi, o'qitish texnologiyalari, global tarmoq.

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy taraqqiyotning yangi, tarixiy va tadrijiy bosqichiga ko'tarildi. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini modernizatsiyalash davrida xalq bilan muloqot sezilarli darajada oshdi.

Inson manfaatlarini ta'minlash jarayonida ochiqlik, shaffoflikka alohida e'tibor qaratilgan bu pallada har bir fuqaroning i nformatsion madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish masalasi g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. XXI asrda ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri ham ta'lim oluvchining axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish jarayonini chuqur tahlil va monitoring qilish hamda shu asosda ilmiy asoslangan o'qitish texnologiyalarini yaratishdan iborat.

MUAMMO VA YECHIMLAR

Globalashuv jarayoni tobora shiddatli tus olarkan, dunyo mamlakatlarining inson manfaatl ariga xizmat qiladigan tom ma'nodagi demokratik yo'lni tanlab olishga intilishi muttasil kuchayib boraveradi. Ushbu jarayonda fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning axborot iste'moli madaniyati tez o'zgaruvchan axboriy jamiyatda yaxshi moslashish va samarali ta'sir ko'rsatishga imkon beradi.

Chunki axborot iste'moli madaniyati shaxsning ilmiy bilish, mustaqil ta'lim olish, hordiq chiqarish va boshqa ko'rinishdagi faoliyati jarayonida paydo bo'ladi. Umuman olganda, axborot iste'moli madaniyati ma'lumotdan samarali foydalanishga doir bilim va ko'nikmalar yig'indisi bo'lib, zaruriy axborotni kompyuter va internet tarmog'i orqali qidirishning turli usullarini o'zida mujassam etadi. Shuning uchun global axborot tizimidagi xabarlarini filtrsiz qabul qilish xavfi muttasil kuchaya boradi va bu holat salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Tadqiqotlarga ko'ra, bugun jahonda 3 milliard kishi yoki dunyo aholisining 40 foizi ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadi. Izlanishlar odamlar bir kunda o'rtacha 2 soat vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazayotganini ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda ham keyingi yillarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi keskin oshdi. Ulardan millionlab fuqarolarimiz faol foydalanmoqda. Albatta, axborot xavfsizligiga nisbatan tahdidlarning asosiy ta'sir vositalari sifatida qo'llanayotgan turli tashviqot aksiyalari, mafkuraviy tazyiqlar, madaniy ekspansiyalar, diskreditatsiya, dezinformatsiya, tuhmat, e'tiborni asosiy masalalardan chalg'itish, faktlarni manfaat uchun buzib talqin qilish kabi ruhiy-informatsion ta'sirlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Chunki bu jarayonda barcha ishlar ommaviy axborot va global kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshiriladi hamda davlatning ichki siyosatiga ishonchsizlik uyg'otish, ichki ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, muxolif kayfiyatni qo'zg'ash hamda vaziyatni kyeskinlashtirish maqsad qilib olinadi. Demokratik boshqaruv, fikrlar xilma-xilligi holatida bu jarayonning oldini olish ham o'ta murakkab.

Eng yomoni, tarqatilayotgan axborotning haqqoniyligini tekshirish ham ushbu axborot tarqatilayotgan real vaqt oralig'ida deyarli imkonsiz. Shuning uchun tashqi axborot ta'sirlariga qarshi kurashning eng samarali usullari eng muhim va yirik tahdidlarga nisbatan umumiy va to'g'ri munosabatni shakllantirishdan iborat. Buning uchun yoshlarning, fuqarolarning bilimi va saviyasini, tahlil qilish ko'nikmasini oshirish, jamiyat va davlat manfaatlariga mos bo'lgan va bo'lmagan turli axborotlarga oqilona munosabat bildira olish madaniyatini shakllantirish lozim. Aynan shu holatda salbiy axborotlarning yoshlar va fuqarolar ongiga ta'siri keskin tushadi. Bunday sharoitda axborot iste'moli madaniyati ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni saralab olishga doir bilim, ko'nikma va malakani talab etadi. Chunki internet, global tarmoqda axborot shu qadar ko'p va xilma-xilki, bu holat foydalanuvchilarning ma'lumotlarni, albatta, tanlashi, saralashi va tahlil qilishini taqozo etadi.

Mutaxassislar ma'lumotiga ko'ra, internet orqali tarqatiladigan axborotning 49 foizi sezilarli darajada zo'ravonlik va yovuzlikning, 57 foizi axloqsizlikning bevosita va bilvosita targ'ibotiga xizmat qiladi. 25 foiz axborot esa yolg'on, to'qima, 31 foiz ma'lumot haqiqatga to'la mos emas. Bu holat yoshlar ongu shuuriga kuchli ta'sir

etuvchi yot, buzg'unchi g'oyalar, milliy mentalitetimizga zid, zararli odat va ko'nikmalar, tekshirilmagan axborotga ham birdek taalluqlidir.

Aynan shuning uchun ham tarqatilayotgan bu kabi axborotlarni yoshlarning to'g'ridan-to'g'ri qabul qilayotgani va uning oqibatlari barchani birdek tashvishga solmoqda. Buning ustiga bugun bu jarayon axborot va madaniyatlarning integratsiyalashuvi davrida yuz bermoqda. Natijada axborot iste'moli madaniyati umuminsoniy madaniyatning bir qirrası sifatida ko'rilmogda. Unga yaxlit tizim sifatida qarash tendensiyasi kuchaymogda.

Aynan ana shu qarash axborot iste'moli madaniyatining asl mohiyatini ochishga imkon beradi. Mamlakatimizda ham bu jarayon kuzatilib, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida joriy etilgan karantin tadbirlari tufayli internet orqali onlayn olib borilgan muloqotlar va axborot almashinuvi fonida yaqqol ko'zga tashlandi. Ta'lim tizimida ham professor-o'qituvchilar tomonidan davlat ta'lim standartiga mos barcha o'quv materiallari, shu jumladan, ma'ruzalar video va yozma taqdimotlar ko'rinishida, amaliy mashg'ulotlar taqdimotlari, bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash uchun vaziyatli masala, test, grafikli organayzerlar ko'rinishida ma'lumotlar bazasi shakllantirildi. Talabalarning darslarda qatnashishi va o'zlashtirishi kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan nazorat qilib borildi. O'quv jarayonida kelib chiqqan ba'zi juz'iy kamchiliklar o'z vaqtida to'g'rilanib, talabalarga tushuntirish ishlari olib borildi. Mana shu holat oliy o'quv yurti talabalari o'rtasida axborot vositalaridan foydalanish, axborot iste'moli madaniyati tushunchasi shakllanishida muhim turtki bo'ldi. Endi aynan shu platformalardan ijtimoiy- siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni buzishga qaratilgan axborot ekspansiyasiga qarshi harakat tizimini barpo etish, mamlakatimizning jahon axborot makoniga va zamonaviy telekommunikatsiyalar tizimiga integratsiyalashuvini tezlashtirish imkoniyatini oshirishda samarali foydalanishimiz lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. <http://uzhurriyat.uz.php> T.: 2016.
2. XXI ASR AXBOROTI: UNING HAQQONIYLIGI UCHUN KIM MAS'UL?
3. www.ziyouz.com kutubxonasi .
4. Artikova, M. (2021). DEMAND FOR A COMPETENCY-BASED APPROACH TO THE ACTIVITIES OF TEACHERS IN MODERN CONDITIONS. InterConf..
5. Artikova, M. B. (2019). EXPERIENCE IN DEVELOPING ENTREPRENEURSHIP SKILLS IN FOREIGN COUNTRIES. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(7), 250-255.
6. Mirzayev, O. K. (2024). HISTORICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF ELEMENTARY ENTREPRENEURIAL SKILLS OF CHILDREN

IN PRESCHOOL EDUCATION. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(02), 167-171.

7..Xusanovich, M. O. (2021). Formation Of Elements Of Entrepreneurial Activity In Pupils Of The Preschool Educational Organization. JournalNX, 1, 265.

8..Mirzaev, O. (2022). The role of ethics and aesthetics in the formation of entrepreneurial relations between individuals. Science and innovation, 1(B6), 125-130.